YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH ORQALI SOLIQ BAZASINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Toshkent xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Gadoyeva Nilufar Erkinovna
nilufargadoeva@icloud.com

Annotatsiya. Maqolada yashirin iqtisodiy faoliyatni formallashtirish orqali soliq bazasini kengaytirishning nazariy-metodologik va tashkiliy-iqtisodiy asoslari tadqiq etilgan. Soliq bazasini kengaytirish fiskal yukni oshirish emas, balki soliq munosabatlariga to‘liq jalb etilmagan iqtisodiy qiymatni identifikatsiyalash va barqaror soliq bazasiga transformatsiya qilish orqali ta’minlanishi asoslangan. Yashirin iqtisodiyot sub’ektlarini soliq xavfi, formallashuv to‘siqlari va fiskal salohiyati bo‘yicha segmentatsiyalash hamda ularga differensiatsiyalangan ma’muriy ta’sir choralarini qo‘llash taklif etilgan. Formallashuv samaradorligini sub’ektning rasmiy sektorda barqaror saqlanishi, soliq majburiyatlarini muntazam bajarishi va takrorlanuvchi budjet tushumlarini shakllantirishi orqali baholash zarurligi asoslangan. Natijada yashirin iqtisodiy faoliyatni rasmiy sektorga barqaror integratsiya qilish soliq bazasini kengaytirish va budjet barqarorligini ta’minlashning muhim ichki fiskal rezervi ekanligi aniqlangan.

Abstract. The article examines the theoretical, methodological, organizational and economic foundations of expanding the tax base through the formalization of shadow economic activity. It argues that tax-base expansion should be achieved not by increasing the fiscal burden, but by identifying economic value outside formal tax relations and transforming it into a sustainable taxable base. A risk-based segmentation of informal actors and differentiated tax administration measures are proposed. Formalization effectiveness is assessed through sustained participation in the formal sector, regular tax compliance and the generation of recurrent budget revenues. The

findings indicate that the sustainable integration of shadow economic activity into the formal economy constitutes an important internal fiscal reserve for broadening the tax base and strengthening fiscal sustainability.

Kalit so‘zlar. Yashirin iqtisodiyot, soliq bazasi, formallashtirish, soliq ma’muriyatchiligi, soliq xavfi, segmentatsiya, soliq komplaensi, ixtiyoriy legallashtirish, raqamli nazorat, budjet daromadlari, fiskal rezerv, budjet barqarorligi.

Keywords. Shadow economy, tax base, formalization, tax administration, tax risk, segmentation, tax compliance, voluntary formalization, digital monitoring, budget revenues, fiscal reserve, fiscal sustainability.

Kirish

Zamonaviy fiskal siyosat sharoitida davlat budjetining barqaror daromad bazasini shakllantirish soliq stavkalarini mexanik ravishda oshirishdan ko‘ra soliqqa tortish qamrovini kengaytirish, mavjud iqtisodiy qiymatni rasmiy hisobga jalb etish va soliq ma’muriyatchiligining institutsional samaradorligini oshirish bilan tobora ko‘proq bog‘lanmoqda. Bu nuqtai nazardan, yashirin iqtisodiyot faqat nazoratdan chetda qolgan iqtisodiy faoliyat sifatida emas, balki soliq tizimiga to‘liq integratsiya qilinmagan potensial fiskal resurs sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Soliq bazasini kengaytirish mazmunan mavjud soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq yukini oshirishni emas, balki iqtisodiyotda yaratilayotgan, ammo soliq ob’ekti va soliq bazasi sifatida to‘liq identifikatsiya qilinmagan iqtisodiy qiymatni fiskal munosabatlarga jalb etishni anglatadi. Shu sababli norasmiy tadbirkorlik, ro‘yxatdan o‘tmasdan faoliyat yuritish, aylanmalar va daromadlarni to‘liq aks ettirmaslik, mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmaslik hamda hujjatsiz tovar aylanmasi soliq bazasini kengaytirishning muhim foydalanilmayotgan rezervlarini shakllantiradi.

Mazkur muammoning O‘zbekiston uchun ahamiyati rasmiy statistik baholar bilan ham tasdiqlanadi. Xususan, rasmiy ma’lumotlarda yashirin iqtisodiyotning baholangan ulushi 2017 yildagi 50 foizdan 2024 yilda 35 foizgacha qisqargani qayd

etilgan. Biroq mazkur dinamika norasmiy iqtisodiy faoliyat hali ham iqtisodiyotda sezilarli salmoqqa ega ekanligini va uning muayyan qismi soliq bazasini kengaytirish uchun potensial fiskal rezerv bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, soliq bazasini identifikatsiya qilishning o‘zi avtomatik ravishda budjet tushumini ta’minlamaydi. 2025 yil yakunida soliq qarzdorligining 53,3 trln so‘mga yetgani soliq solish ob’ektini aniqlash, soliq majburiyatini hisoblash va hisoblangan summani amalda undirish o‘rtasida institutsional uzviylik bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois yashirin iqtisodiyotni qisqartirish masalasi bir martalik nazorat tadbiri yoki huquqbuzarlikni aniqlash vazifasi sifatida emas, balki norasmiy iqtisodiy faoliyatni barqaror rasmiy soliq bazasiga transformatsiya qilishning kompleks institutsional jarayoni sifatida tadqiq etilishi lozim.

Mazkur tadqiqotning maqsadi yashirin iqtisodiy faoliyat sub’ektlarini risk darajasi va formallashuv salohiyatiga ko‘ra segmentatsiyalash, ularga nisbatan differensiatsiyalangan soliq ma’muriyatchiligi instrumentlarini belgilash hamda formallashuv natijalarini budjet barqarorligi nuqtai nazaridan baholashga asoslangan takomillashtirilgan mexanizmni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq bazasini kengaytirish o‘rtasidagi bog‘liqlik fiskal siyosat hamda soliq ma’muriyatchiligining muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuvda asosiy e’tibor iqtisodiyotda mavjud bo‘lgan, ammo soliq organlari uchun to‘liq kuzatilmaydigan iqtisodiy operatsiyalarni identifikatsiyalash, ularni rasmiy hisobga kiritish va keyinchalik barqaror soliq majburiyati manbaiga aylantirishga qaratiladi.

O‘zbekistonda ushbu masala institutsional jihatdan ham ustuvor ahamiyat kasb etgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktabrdagi PF–6098-son Farmoni bilan biznesning «soyadan» chiqishini rag‘batlantirish, soliq tartib-taomillarini soddalashtirish, naqdsiz hisob-kitoblarni kengaytirish, ro‘yxatdan

o‘tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, tushumlarni yashirish va norasmiy mehnat munosabatlarini aniqlash bo‘yicha tashkiliy vazifalar belgilangan. Ushbu yondashuv yashirin iqtisodiyotni qisqartirish siyosatini faqat sanksiya va nazorat vositalariga emas, balki formal iqtisodiy faoliyat uchun maqbul institutsional muhit yaratishga ham asoslash zaruratini ko‘rsatadi.

Xalqaro yondashuvlarda ham soliq bazasini kengaytirish soliq ma’muriyatchiligi sifatini oshirish bilan uzviy bog‘liq holda qaraladi. Xususan, Xalqaro valyuta jamg‘armasining O‘zbekiston bo‘yicha 2024 yilgi baholashida soliq bazasini kengaytirish bilan bir vaqtda soliq ma’muriyatchiligini mustahkamlash zarurati qayd etilgan. Bu esa soliq bazasi kengayishini faqat normativ soliq parametrlari emas, balki ma’lumotlar sifati, risklarni boshqarish, komplaens va undiruvchanlik kabi institutsional omillar bilan birgalikda tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotda tizimli va institutsional tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, struktur-funksional yondashuv hamda risk asosida segmentatsiya usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv orqali yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlashdan uni barqaror soliq bazasiga transformatsiya qilishgacha bo‘lgan jarayon o‘zaro bog‘liq bosqichlar tizimi sifatida baholandi. Institutsional tahlil asosida formallashuvni rag‘batlantiruvchi va cheklovchi omillar o‘rganildi. Risk asosida segmentatsiya esa turli iqtisodiy xulq-atvorga ega sub’ektlarga yagona ma’muriy ta’sir chorasini qo‘llashning samarasizligini hisobga olgan holda, ularga differensiatsiyalangan yondashuvni shakllantirishga xizmat qildi.

Tadqiqotda yashirin iqtisodiy faoliyatni barqaror soliq bazasiga transformatsiya qilishning beshta o‘zaro bog‘liq funksional bo‘g‘inga asoslangan mexanizmi tizimlashtirildi: sub’ektlar va operatsiyalarni risk asosida segmentatsiyalash; ixtiyoriy legallashtirish uchun iqtisodiy va ma’muriy sharoitlarni shakllantirish; iqtisodiy operatsiyalarni raqamli ma’lumotlar asosida identifikatsiya qilish; segment

xususiyatiga mos differensiatsiyalangan soliq ma’muriyatchiligini qo‘llash; formallashuv natijalarini monitoring qilish va ta’sir choralarini qayta baholash.

Ushbu yondashuvning metodologik afzalligi yashirin iqtisodiyot hajmini makrodarajada baholash bilan cheklanmasdan, soliqqa tortiladigan qiymatning rasmiy hisobdan tashqarida qolish ehtimoli yuqori bo‘lgan konkret sub’ektlar, hududlar, tarmoqlar va operatsiyalarni lokallashtirish imkoniyati bilan ifodalanadi. Bunda aylanma, ish haqi fondi, bandlik, kontragent operatsiyalari, hisob-kitoblar tarkibi, soliq qarzdorligi va uchinchi tomon ma’lumotlari o‘rtasidagi tafovutlarni kompleks tahlil qilish axborot asimmetriyasini qisqartirishning muhim sharti hisoblanadi.

Yashirin iqtisodiy faoliyat sub’ektlarining iqtisodiy motivatsiyasi va soliq xavfi bir xil bo‘lmaganligi sababli ularga nisbatan standartlashtirilgan yagona ma’muriy yondashuvni qo‘llash yuqori natija bermaydi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda sub’ektlarni formallashuv to‘siqlari yuqori va xavfi past sub’ektlar, qisman komplaent sub’ektlar, yuqori xavfli sub’ektlar hamda tarmoq yoki tranzaksiya zanjiri darajasidagi norasmiylik guruhlariga ajratish metodologik jihatdan asoslangan.

Birinchi segmentda ro‘yxatdan o‘tish va hisob yuritish xarajatlarining yuqoriligi asosiy to‘siq bo‘lgani uchun tartib-taomillarni soddalashtirish, axborot-maslahat xizmatlarini kengaytirish va komplaens xarajatlarini kamaytirish samarali hisoblanadi. Qisman komplaent sub’ektlarda deklaratsiya va uchinchi tomon ma’lumotlarini avtomatik solishtirish, ogohlantirish va ixtiyoriy tuzatish mexanizmlari maqsadga muvofiq. Yuqori xavfli hamda daromadlarni qasddan yashirish belgilari takrorlanuvchi sub’ektlarda esa maqsadli audit, kontragent va tranzaksiya tahlili ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bu yerda muhim metodologik xulosa shundaki, nazorat intensivligi soliq xavfi bilan to‘g‘ri proporsional, servis va adaptatsiya instrumentlarining salmog‘i esa formallashuv to‘siqlari darajasi bilan bog‘liq holda belgilanishi lozim. Bunday yondashuv ma’muriy resurslarni barcha sub’ektlarga bir xil taqsimlash o‘rniga ularni

eng yuqori potensial fiskal samara shakllanadigan segmentlarga yo‘naltirish imkonini beradi. Tadqiqot materiallarida ham differensiatsiyalangan yondashuvning mazmuni aynan nazorat intensivligini risk bilan, servis vositalarini esa formallashuv barerlari bilan bog‘lash orqali asoslangan.

Tadqiqot doirasida formallashtirish natijadorligini baholashga nisbatan ham an’anaviy yondashuvni takomillashtirish zarurati asoslanadi. Amalda yangi sub’ektning davlat ro‘yxatidan o‘tishi ko‘p hollarda formallashuvning yakuniy natijasi sifatida baholanadi. Biroq sub’ekt qisqa muddatdan keyin faoliyatini to‘xtatsa, soliq hisobotlarini taqdim etmasa yoki yana norasmiy operatsiyalarga qaytsa, ro‘yxatdan o‘tish statistikasi ijobiy bo‘lgani holda barqaror soliq bazasi shakllanmaydi. Shu sababli formallashtirish samarasini sub’ektning rasmiy sektorda kamida muayyan davr saqlanishi va soliq majburiyatlarini muntazam bajarishi bilan baholash maqsadga muvofiq.

Bu yondashuv formallashtirishning miqdoriy natijasidan sifat natijasiga o‘tishni anglatadi. Xususan, rasmiy sektorga jalb qilingan sub’ektlarning kamida 12 oy davomida iqtisodiy faolligi va soliq komplaensini saqlab qolish darajasi formallashtirish siyosatining barqarorligini aniqroq aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning fiskal samarasi bir martalik qo‘shimcha hisoblangan soliqlar hajmi bilan emas, balki rasmiy sektorda saqlanib qolgan sub’ektlar, muntazam to‘lov intizomi va takrorlanuvchi budjet tushumlari orqali baholanishi lozim.

Amaliy ma’lumotlar ham riskka asoslangan axborot tahlilining fiskal ahamiyatini ko‘rsatadi. Jumladan, 2024 yilda soliq hisobotlaridagi tafovutlarni tahlil qilish natijasida 486,3 mlrd so‘m qo‘shimcha soliq hisoblangan va uning 418,7 mlrd so‘mi amalda undirilgan. Bu natija ma’lumotlarni solishtirish va risklarni aniqlashning o‘zi emas, balki aniqlangan soliq majburiyatining amaldagi undiruvchanligi ham ma’muriyatchilik samaradorligining mustaqil mezoni bo‘lishi zarurligini tasdiqlaydi.

Shu asosda yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning natijaviy zanjirini quyidagi iqtisodiy mantiq orqali ifodalash mumkin:

yashirin iqtisodiy faoliyat → formallashtirish rezervini aniqlash → risk bo‘yicha segmentatsiya → differensiatsiyalangan ta’sir → rasmiy iqtisodiy operatsiya → soliq solish ob’ekti → soliq bazasi → soliq majburiyati → real budjet tushumi → takrorlanuvchi budjet daromadi.

Mazkur zanjirning prinsipial ilmiy ahamiyati shundaki, unda fiskal natija yashirin faoliyatni «aniqlash» bosqichida emas, balki uning iqtisodiy operatsiya sifatida rasmiylashishi, soliq bazasiga kiritilishi, majburiyatning hisoblanishi va amalda undirilishi orqali shakllanadi. Dissertatsiyaning 3.1-bo‘limida ham ushbu natijaviy yondashuv qisqa muddatda aniqlangan tafovutlar va undirilgan soliqlar, o‘rta muddatda esa rasmiylashtirilgan sub’ektlarning saqlanishi, to‘lov intizomi, soliq bazasi diversifikatsiyasi va budjet tushumlarining takrorlanuvchanligi bilan baholanishi lozimligi asoslangan.

Shu jihatdan, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish siyosati samaradorligini faqat tekshiruvlar soni, aniqlangan huquqbuzarliklar yoki yangi ro‘yxatdan o‘tgan sub’ektlar soni kabi faoliyat ko‘rsatkichlari bilan baholash yetarli emas. Natijaga yo‘naltirilgan KPI tizimida barqaror formallashgan sub’ektlar ulushi, ixtiyoriy tuzatilgan deklaratsiyalar, aniqlangan soliq bazasining undirilgan qismi, norasmiy mehnat munosabatlarining rasmiylashuvi, soliq qarzdorligi dinamikasi va budjet tushumlarining takrorlanuvchanligi ustuvor mezonlarga aylanishi lozim. Bunday yondashuv fiskal boshqaruvni «qancha sub’ekt aniqlandi?» degan ma’muriy savoldan «qancha yashirin iqtisodiy qiymat barqaror soliq bazasiga transformatsiya qilindi?» degan iqtisodiy natijaga yo‘naltirilgan mezonga o‘tkazadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali soliq bazasini kengaytirish mavjud soliq to‘lovchilar zimmasidagi fiskal yukni oshirishga muqobil

bo‘lgan muhim institutsional-fiskal mexanizm ekanligini ko‘rsatdi. Soliq bazasini barqaror kengaytirishning asosiy manbai iqtisodiyotda yaratilayotgan, ammo soliq munosabatlariga to‘liq jalb etilmagan qiymatni aniqlash, formallashtirish va uni muntazam soliq majburiyatiga transformatsiya qilishdan iborat.

Yashirin iqtisodiy faoliyat sub’ektlarining shakllanish sabablari, soliq xavfi va formallashuv salohiyati o‘zaro farqlanganligi sababli ularga nisbatan yagona ma’muriy yondashuvni qo‘llash iqtisodiy jihatdan samarali emas. Shu bois sub’ektlarni formallashuv to‘siqlari va soliq xavfi asosida segmentatsiyalash, past xavfli sub’ektlarga servis va soddalashtirish instrumentlarini, qisman komplaent sub’ektlarga avtomatik ogohlantirish va ixtiyoriy tuzatish mexanizmlarini, yuqori xavfli sub’ektlarga esa maqsadli audit hamda tranzaksion nazorat instrumentlarini qo‘llash maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning muhim metodologik natijasi formallashtirishni bir martalik davlat ro‘yxatidan o‘tish fakti bilan tenglashtirmaslik zarurati bilan bog‘liq. Real fiskal samara sub’ekt rasmiy sektorga kirganidan keyin iqtisodiy faolligini saqlab qolishi, soliq hisobotlarini muntazam taqdim etishi, soliq majburiyatlarini bajarishi va budjet uchun takrorlanuvchi daromad manbaini shakllantirishi orqali namoyon bo‘ladi. Bu jihat yashirin iqtisodiyotni qisqartirish natijalarini miqdoriy emas, balki sifat va barqarorlik mezonlari asosida baholashga o‘tishni talab qiladi.

Shu asosda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali soliq bazasini kengaytirish mexanizmini aniqlash,segmentatsiyalash, differensiatsiyalangan ta’sir, formallashtirish, soliq bazasiga integratsiya qilish, undirish, barqaror monitoring prinsipi asosida tashkil etish taklif etiladi. Mazkur mexanizmning amaliyotga tatbiq etilishi soliq organlarining cheklangan ma’muriy resurslarini yuqori fiskal samara beradigan yo‘nalishlarga konsentratsiyalash, ixtiyoriy komplaensni rag‘batlantirish, soliq bazasining tarkibiy diversifikatsiyasini ta’minlash va budjet daromadlarining takrorlanuvchanligini kuchaytirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktabrdagi PF–6098-son «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni.

2. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation—Press Release; and Staff Report. IMF Country Report No. 24/210. Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2024.

1. Hamada K. Broadening the Tax Base: The Economics Behind It // Asian Development Review. – 1994. – Vol. 12, No. 2. – P. 51–84. DOI: 10.1142/S0116110594000096.

2. Bird R.M. Tax Challenges Facing Developing Countries. – National Institute of Public Finance and Policy Working Paper, 2008.

3. Tanzi V., Zee H.H. Tax Policy for Developing Countries. IMF Economic Issues No. 27. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2001. DOI: 10.5089/9781589060203.051.

4. Auriol E., Warlters M. Taxation Base in Developing Countries // Journal of Public Economics. – 2005. – Vol. 89(4). – P. 625–646. DOI: 10.1016/j.jpubeco.2004.04.008.

5. Kawano L., Slemrod J. How Do Corporate Tax Bases Change When Corporate Tax Rates Change? // International Tax and Public Finance. – 2016. – Vol. 23(3). – P. 401–433. DOI: 10.1007/s10797-015-9375-y.